

MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR

Sattorova Nozima Ilhom qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yunalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va raqamli transformatsiya jarayonining mohiyatini yoritib boramiz. Tadqiqotda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali bolalarda, mustaqil fikrlash, axborot savodxonligi va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli transformatsiyaning maktabgacha ta'lim sifatiga, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasiga hamda ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimini takomillashtirishga ta'siri ko'rsatib berilgan. Ishda faoliyatga yo'naltirilganlik, o'yin orqali o'qitish, individual yondashuv va ko'rgazmalilik tamoyillari asosida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari yoritib boramiz.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli transformatsiya, ijodkorlik, axborot savodxonligi, kommunikativ ko'nikma, individual yondashuv, o'yinli ta'lim.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В данной статье рассматривается сущность применения инновационных педагогических технологий и процесса цифровой трансформации в системе дошкольного образования. В исследовании анализируются возможности развития у детей творческих способностей, самостоятельного мышления, информационной грамотности и*

коммуникативных навыков посредством внедрения современных технологий в образовательный процесс. Также показано влияние цифровой трансформации на качество дошкольного образования, профессиональную компетентность педагогов и совершенствование системы управления в образовательных учреждениях. В работе раскрыты педагогические условия применения инновационных технологий на основе принципов деятельностного подхода, обучения через игру, индивидуального подхода и наглядности.

Ключевые слова: *дошкольное образование, инновационные педагогические технологии, цифровая трансформация, креативность, информационная грамотность, коммуникативные навыки, индивидуальный подход, игровое обучение.*

INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND DIGITAL TRANSFORMATION IN PRESCHOOL EDUCATION

Annotation: *This article explores the essence of implementing innovative pedagogical technologies and the process of digital transformation in the preschool education system. The study analyzes the opportunities to develop children's creativity, independent thinking, information literacy, and communication skills through the application of modern technologies in the educational process. It also highlights the impact of digital transformation on the quality of preschool education, the professional competence of teachers, and the improvement of management systems in educational institutions. The paper outlines the pedagogical conditions for applying innovative technologies based on the principles of activity-oriented learning, learning through play, individual approach, and visibility.*

Keywords: *preschool education, innovative pedagogical technologies, digital transformation, creativity, information literacy, communicative competence, individual approach, game-based learning.*

XXI asr ta'lim tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan chambarchas bog'langan. Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayoni barcha sohalarida, xususan, ta'limda tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida bu o'zgarishlar bolalarni erta yoshdan raqamli madaniyat, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga o'rgatish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, "Maktabgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va pedagoglar malakasini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning mohiyati Innovatsion pedagogik texnologiyalar — bu ta'lim jarayonini takomillashtirishga, o'quvchi (yoki tarbiyalanuvchi) shaxsining faolligini oshirishga qaratilgan yangi shakl, metod va vositalar tizimidir. Maktabgacha ta'limda ular quyidagi yo'nalishlarda qo'llanadi: o'yin asosidagi o'qitish (gamifikatsiya); STEAM ta'lim (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika uyg'unligi); interfaol mashg'ulotlar va raqamli o'yinlar: virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari; raqamli didaktik materiallar va elektron portfoliolar. Bu yondashuvlar ta'limni qiziqarli, ijodiy va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishga imkon beradi.

Raqamli transformatsiya — bu an'anaviy ta'limni raqamli vositalar, platformalar va xizmatlar orqali takomillashtirish jarayonidir. Maktabgacha ta'limda raqamli transformatsiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: raqamli o'quv dasturlari va multimedia materiallarini joriy etish; onlayn platformalar orqali ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish: pedagoglar uchun raqamli metodik resurslar yaratish; ta'lim jarayonini monitoring qilishda elektron tizimlardan foydalanish. Bu jarayon natijasida ta'lim muassasalarida boshqaruv shaffofligi oshadi, bolalarning rivojlanishi doimiy nazoratda bo'ladi, va har bir tarbiyalanuvchiga individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Innovatsion texnologiyalar orqali bolalarda kompetensiyalarni rivojlantirish Maktabgacha yoshdagi bolalarda

quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir:

Ijodkorlik – turli o'yinlar, loyihalar va rasm chizish faoliyatlari orqali;

Axborot savodxonligi – raqamli qurilmalar bilan to'g'ri ishlashni o'rgatish orqali; Kommunikativ ko'nikmalar – jamoaviy o'yinlar va interfaol mashg'ulotlar orqali; Mustaqil fikrlash – muammoli vaziyatlarni yechish va tanlov asosidagi faoliyat orqali. Innovatsion texnologiyalar bu ko'nikmalarni tabiiy, qiziqarli va bolalarga mos shaklda rivojlantiradi. Pedagoglarning raqamli kompetensiyasi va boshqaruv tizimi Raqamli transformatsiya jarayonida pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tarbiyachi: raqamli vositalardan samarali foydalanishi; onlayn platformalarda dars rejalari va o'yinlarni tuzishi; bolalarning faoliyatini elektron tarzda kuzatib borishi; ota-onalar bilan virtual muloqot olib borishi kerak. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilishi – ma'muriy ishlarni soddalashtiradi, hisobotlarni tezlashtiradi va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va raqamli transformatsiyani amalga oshirish natijasida ta'lim sifati sezilarli darajada oshadi. Bu jarayon bolalarda XXI asr ko'nikmalarini — ijodkorlik, mustaqil fikrlash, raqamli madaniyat va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy salohiyati yuksaladi, boshqaruv tizimi modernizatsiyalanadi va ta'lim jarayoni samaradorligi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni.
3. Xo'jayev A., Qodirova D. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2021.
4. Yusupova M. Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Samarqand, 2022.